

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 3293,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 13,2 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1415,3 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,0 %), qishloq aholisi soni 1878,3 ming kishini (57,0 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni **13,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17,9 ming nafami** tashkil etdi.
- **3,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,1 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart oylarida)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o`tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (1-aprel holatiga, ming kishi)

| | 2019-yil | 2020-yil | O`tgan yilga nisbatan o`shish yoki kamayish sur`ati, % da |
|-----------------------------|---------------|---------------|---|
| Qashqadaryo viloyati | 3225,8 | 3293,6 | 102,1 |
| Qarshi sh. | 271,7 | 276,3 | 101,7 |
| Shahrisabz sh. | 137,5 | 139,5 | 101,5 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| G`uzor | 200,1 | 204,3 | 102,1 |
| Dehqonobod | 144,4 | 147,5 | 102,2 |
| Qamashi | 265,9 | 271,9 | 102,2 |
| Qarshi | 242,8 | 248,3 | 102,3 |
| Koson | 279,5 | 285,6 | 102,2 |
| Kitob | 260,0 | 264,6 | 101,8 |
| Mirishkor | 117,3 | 119,5 | 101,9 |
| Muborak | 85,2 | 87,0 | 102,0 |
| Nishon | 149,3 | 153,2 | 102,6 |
| Kasbi | 192,6 | 196,6 | 102,1 |
| Chiroqchi | 401,8 | 412,3 | 102,6 |
| Shahrisabz | 218,7 | 222,8 | 101,8 |
| Yakkabog` | 259,0 | 264,2 | 102,0 |

*) dastlabki ma`lumot


Hududlar kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga eng ko`p aholi soni Chiroqchi tumanida 412,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,5 %) va Koson tumanida 285,6 ming kishini (8,7 %), Qarshi shahrida 276,3 ming kishini (8,4 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 87,0 ming kishini (2,6 %) va Mirishkor tumanida 119,5 ming kishini (3,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o`shish sur`ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Chiroqchi, Nishon tumanlarida 2,6 % ni, Qarshi tumanida 2,3 % ni, Dehqonobod, Qamashi va Koson tumanlarida 2,2 % ni, Kasbi va G`uzor tumanlarida 2,1 % ni, aksincha eng kam o`shish sur`ati Shahrisabz shahrida 1,5 % ni, Qarshi shahrida 1,7 %, Kitob, Shahrisabz tumanida 1,8 % ni va Mirishkor tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.


Demografik holat



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma`lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo`linishi (2020-yil 1-aprel holatiga, % da)



Doimiy aholi sonining hududlar kesimida jinslar bo'yicha taqsimlanishi

| | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|-----------------------------|---------------|----------------|----------------|
| Qashqadaryo viloyati | 3293,6 | 1 666,1 | 1 627,5 |
| Qarshi sh. | 276,3 | 138,1 | 138,2 |
| Shahrisabz sh. | 139,5 | 70,8 | 68,7 |
| tumanlar: | | | |
| G`uzor | 204,3 | 103,7 | 100,6 |
| Dehqonobod | 147,5 | 74,5 | 73,0 |
| Qamashi | 271,9 | 137,8 | 134,1 |
| Qarshi | 248,3 | 123,4 | 124,9 |
| Koson | 285,6 | 144,7 | 140,9 |
| Kitob | 264,6 | 134,6 | 130,0 |
| Mirishkor | 119,5 | 61,0 | 58,5 |
| Muborak | 87,0 | 43,9 | 43,1 |
| Nishon | 153,2 | 76,7 | 76,5 |
| Kasbi | 196,6 | 100,3 | 96,3 |
| Chiroqchi | 412,3 | 209,6 | 202,7 |
| Shahrisabz | 222,8 | 113,3 | 109,5 |
| Yakkabog` | 264,2 | 133,7 | 130,5 |



Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 17,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,9 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 21,5 promille) ko'paygan .



O'g'il bolalar: 9,3
ming nafar


Qiz bolalar: 8,6
ming nafar

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari Qarshi shahrida (16,5 promilledan 25,8 promillega), G'uzor (21,4 promilledan 23,4 promillega) va Nishon (22,7 promilledan 24,4 promillega) tumanlarida va eng yuqori kamayish sur'atlari Dehqonobod (26,6 promilledan 23,8 promillega), Qarshi tumanida (19,9 promilledan 17,9 promillega), Koson (22,9 promilledan 21,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



**Hududlar kesimida tug`ilganlar soni birlik,
o`sinh yoki kamayish sur`ati % da (yanvar-mart)**

| | 2019-yil | 2020-yil | O`sinh yoki kamayish sur`ati % da |
|-----------------------------|--------------|--------------|-----------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 17048 | 17884 | 104,9 |
| Qarshi sh. | 1104 | 1771 | 160,4 |
| Shahrisabz sh. | 651 | 683 | 104,9 |
| tumanlar: | | | |
| G`uzor | 1055 | 1186 | 112,4 |
| Dehqonobod | 922 | 873 | 94,7 |
| Qamashi | 1589 | 1604 | 100,9 |
| Qarshi | 1191 | 1103 | 92,6 |
| Koson | 1576 | 1491 | 94,6 |
| Kitob | 1256 | 1322 | 105,3 |
| Mirishkor | 563 | 525 | 93,3 |
| Muborak | 492 | 476 | 96,7 |
| Nishon | 833 | 927 | 111,3 |
| Kasbi | 946 | 1027 | 108,6 |
| Chiroqchi | 2545 | 2494 | 98,0 |
| Shahrisabz | 855 | 910 | 106,4 |
| Yakkabog` | 1470 | 1492 | 101,5 |



Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 3,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etdi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 3,7 promille).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish sur'atlari Yakkabog' (3,8 promilledan 4,4 promillega), Muborak (3,3 promilledan 3,8 promillega) aksincha sezilarli darajada kamayish sur'atlari G'uzor (4,1 promilledan 3,8 promillega), Dehqonobod tumani (3,3 promilledan 3,0 promillega) Koson tumani (3,5 promilledan 3,2 promillega), Kitob tumani (3,8 promilledan 3,6 promillega), Qarshi shahri (4,4 promilledan 4,1 promillega) va Shahrisabz (3,6 promilledan 3,4 promillega) tumanlarida kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
1,6
ming
kishi

Ayollar:
1,4
ming
kishi

Tumanlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)




**Hududlar kesimida o`lganlar soni birlik,
o`sinh yoki kamayish sur`ati % da**

| | 2019-yil | 2020-yil | O`sinh yoki kamayish sur`ati % da |
|-----------------------------|-------------|-------------|-----------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 2910 | 3022 | 103,8 |
| Qarshi sh. | 293 | 281 | 95,9 |
| Shahrisabz sh. | 137 | 131 | 95,6 |
| tumanlar: | | | |
| G`uzor | 201 | 195 | 97,0 |
| Dehqonobod | 117 | 108 | 92,3 |
| Qamashi | 228 | 258 | 113,2 |
| Qarshi | 237 | 271 | 114,3 |
| Koson | 241 | 229 | 95,0 |
| Kitob | 246 | 239 | 97,2 |
| Mirishkor | 100 | 117 | 117,0 |
| Muborak | 69 | 82 | 118,8 |
| Nishon | 131 | 132 | 100,8 |
| Kasbi | 175 | 194 | 110,9 |
| Chiroqchi | 300 | 307 | 102,3 |
| Shahrisabz | 196 | 190 | 96,9 |
| Yakkabog` | 239 | 288 | 120,5 |

2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlar ning 60,4 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,5 % i o'simtalardan, 3,9 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,6 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,2 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 171 nafarni tashkil etib, ularning 31,6 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,8 % i tug'ma anomaliyalardan, 1,2 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,8 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 13,5 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 21,0 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan % da)



2020-yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 14,9 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 0,7 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 14,2 ming kishi) o'sgan.



Tabiiy o'sish: 14,9 ming kishi

Nikoh. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,1 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (112,9 %), Nishon (104,1 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Yakkabog' (80,8 %), Qamashi (81,5 %), Qarshi (84,0 %), Kasbi (84,6 %), Mirishkor (86,2 %), Koson (87,5 %), Kitob (89,7 %), Dehqonobod (95,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.


2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta, nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (145,5 %), Shahrisabz (140,9 %), Dehqonobod (133,3 %), Qarshi shahri (131,0 %), Kitob (130,0 %), Shahrisabz shahri (111,8 %), Chiroqchi (119,2 %) va eng yuqori kamayish sur'atlari Mirishkor (76,9 %), Qarshi (79,3 %), G'uzor (95,5 %), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)



**Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart)**



Hududlar kesimida tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni birlik, o`shish yoki kamayish sur`ati % da (yanvar-mart)

| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|-----------------------------|-------------------|-------------|------------------------------------|----------------------|------------|------------------------------------|
| | 2019-yil | 2020-yil | O`shish yoki kamayish sur`ati % da | 2019-yil | 2020-yil | O`shish yoki kamayish sur`ati % da |
| Qashqadaryo viloyati | 4530 | 4131 | 91,2 | 389 | 454 | 116,7 |
| Qarshi sh. | 348 | 343 | 98,6 | 58 | 76 | 131,0 |
| Shahrisabz sh. | 188 | 181 | 96,3 | 32 | 35 | 109,4 |
| tumanlar: | | | | | | |
| G`uzor | 237 | 231 | 97,5 | 22 | 21 | 95,5 |
| Dehqonobod | 196 | 187 | 95,4 | 15 | 20 | 133,3 |
| Qamashi | 362 | 295 | 81,5 | 27 | 30 | 111,1 |
| Qarshi | 306 | 257 | 84,0 | 29 | 23 | 79,3 |
| Koson | 409 | 358 | 87,5 | 32 | 38 | 118,8 |
| Kitob | 349 | 313 | 89,7 | 30 | 39 | 130,0 |
| Mirishkor | 174 | 150 | 86,2 | 13 | 10 | 76,9 |
| Muborak | 93 | 105 | 112,9 | 11 | 16 | 145,5 |
| Nishon | 222 | 231 | 104,1 | 22 | 22 | 100,0 |
| Kasbi | 227 | 192 | 84,6 | 8 | 26 | 325,0 |
| Chiroqchi | 609 | 573 | 94,1 | 26 | 31 | 119,2 |
| Shahrisabz | 372 | 361 | 97,0 | 22 | 31 | 140,9 |
| Yakkabog` | 438 | 354 | 80,8 | 42 | 36 | 85,7 |



Migratsiya. 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,7 ming kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosini minus 1,7 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 1,4 ming kishi bo'lgan.



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chiroqchi va Kitob tumanlarida (minus 0,3 ming kishi), Qamashi, Koson va Yakkabog' tumanlarida (minus 0,2 ming kishi), Dehqonobod, G'uzor va Kasbi tumanlarida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

Aholi migratsiyasi (ming kishi yanvar-mart)

| | 2019-yil | 2020-yil |
|-----------------------------|----------|----------|
| Ko'chib kelganlar | 2,7 | 3,0 |
| Ko'chib ketganlar | 4,1 | 4,7 |
| Migratsiya saldosini | -1,4 | -1,7 |

**Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni
va migratsiya saldosi, kishi (yanvar-mart)**

| | Ko'chib kelganlar | | Ko'chib ketganlar | | Migratsiya saldosi | |
|------------------------------|-------------------|-------------|-------------------|-------------|--------------------|--------------|
| | 2019-yil | 2020-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2019-yil | 2020-yil |
| Qashqadaryo viloyati: | 2651 | 3037 | 4078 | 4727 | -1427 | -1690 |
| Qarshi sh. | 680 | 609 | 526 | 650 | 154 | -41 |
| Shahrisabz sh. | 110 | 94 | 208 | 236 | -98 | -142 |
| tumanlar: | | | | | | |
| G`uzor | 125 | 91 | 172 | 269 | -47 | -178 |
| Dehqonobod | 69 | 75 | 223 | 206 | -154 | -131 |
| Qamashi | 21 | 110 | 306 | 344 | -285 | -234 |
| Qarshi | 311 | 603 | 295 | 484 | 16 | 119 |
| Koson | 110 | 142 | 247 | 304 | -137 | -162 |
| Kitob | 145 | 142 | 316 | 398 | -171 | -256 |
| Mirishkor | 127 | 63 | 109 | 133 | 18 | -70 |
| Muborak | 111 | 108 | 137 | 138 | -26 | -30 |
| Nishon | 230 | 313 | 236 | 285 | -6 | 28 |
| Kasbi | 172 | 96 | 159 | 221 | 13 | -125 |
| Chiroqchi | 83 | 82 | 366 | 349 | -283 | -267 |
| Shahrisabz | 184 | 315 | 480 | 281 | -296 | 34 |
| Yakkabog` | 173 | 194 | 298 | 429 | -125 | -235 |

Aholi migratsiyasi ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar (yanvar-mart)

